

## XXI ASRDA URBANIZATSIYA VA URBANISTIK MADANIYAT

**Abdunazarov L.M. -***Qo'qon universiteti dotsenti**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Jahonda kechayotgan globallashuv va modernizatsiya jarayonlari xalqlarning ijtimoiy taraqqiyotiga, turmush madaniyati va urbanizatsion rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib, shaharlashish tendensiyasi va urbanizatsiyalashuvning global voqelikka, muammoga aylanganini namoyon etmoqda. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida kishilik jamiyatini sivilizatsion va urbanizatsion rivojlanish tomon yelaklagan ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni, bu jarayonning etimologik mohiyatini, zamonaviylik, urbanizatsion rivojlanish, submadaniyat yaratishga intilish urbanizatsion rivojlanish modeli bo'lib shakllanmoqda. Shu nuqtai nazardan insonning ijtimoiy-madaniy shakllanishi va rivojlanishi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni to'la qondirishga qaratilgan aglomeratsiyalarni, urbanizatsiyaning inson manfaatlariga xizmat qilishga qaratilgan gumanistik funktsiyalarining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" asosida shaharlar qiyofasini zamonaviylashtirish, yangi uy-joylar barpo etish, xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirish borasida islohotlar amaliyotga keng tadbiiq etilmoqda. "Bu yo'nalishdagi muhim vazifamiz mamlakatimiz urbanizatsiya darajasini 2025 yilga qadar 40 foizga yetkazish, butun aholining, jumladan, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning bazaviy zaxiralardan foydalanishi uchun qulay iqtisodiy va moliyaviy shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Aholimiz uchun olis-olis qishloqlarda ham shahardagidan kam bo'lmagan yashash sharoitlari yaratish - muhim vazifamizdir. Aholini, eng avvalo, ehtiyojmand va yosh oilalarni arzon va zamonaviy, kulay uyjoy bilan ta'minlash, aholi uchun yashash joyi atrofida ish joylari yaratish, aholining ichimlik suvi, elektr energiyasidan foydalanish imkoniyatini yanada oshirish yo'lidagi ishlarimizni izchil davom ettiramiz"[1;206]. Bu vazifalarni samarali amalga oshirishda urbanizatsiyani ma'naviy voqelik sifatida idrok etish, uning submadaniyat yaratish, identlikni yo'qotmaslik kabi ijtimoiy-madaniy taraqqiyotga oid xususiyatlarini asoslab berish muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asrga kirib, insoniyat yuksak fan va texnika, keng madaniy bilim va tajribaga ega bo'ldi. Shu bilan birga, global va mahalliy miqyosda turli ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy ziddiyatlar yuzaga kelmoqda. Urbanizatsiya jarayonlari shaharlarni rivojlantirib, yangi madaniy muhitni shakllantirmoqda, ammo bu jarayonlar yangi muammolarni ham keltirib chiqaradi. Urbanistik madaniyat, ya'ni shahar madaniyati, shaharlarning iqtisodiy, ijtimoiy va sanoat salohiyati bilan bog'liq holda rivojlanadi. U shahar aholisining ma'naviy va madaniy jihatdan kamol topishiga xizmat qiladi, yangi avlodda milliy iftixor, insonparvarlik va vatanparvarlik hissini uyg'otadi. Madaniy tushuncha orqali jamiyatdagi qadriyatlar va an'analar uzluksiz avloddan avlodga yetkaziladi. Shu jihatdan urbanistik madaniyat shaharlarning boshqaruvi, ijtimoiy munosabatlari va madaniy muhiti bilan uzviy bog'liq bo'lib, har bir shaharning o'zgacha "yuzi" va mentaliteti shakllanishiga xizmat qiladi.

Olijanob maqsadga xizmat qilgani uchun madaniyatshunoslik fani ta'lim tizimida katta ahamiyatga ega. Madaniyatni bugungi kunda moddiy, ma'naviy va nomoddiy madaniyatga bo'lib o'rganamiz.

Shu bilan birga madaniyat turli belgilariga ko'ra, quyidagi sohalarga, shakllarga va ko'rinishlarga bo'linadi:

1. Madaniyat sohalari bo'yicha quyidagicha tasnif qilinadi: iqtisodiy madaniyat, siyosiy madaniyat, kasbiy madaniyati, pedagogik madaniyati, ekologik madaniyat va boshqalar.

2. Ko‘rinishlari bo‘yicha madaniyat quyidagicha tasnif qilinadi:

Hukmron madaniyat, qishloq madaniyati, o‘rganish bo‘lib qolgan madaniyat, shahar madaniyati, ixtisolashgan madaniyat va boshqalar.

3. Madaniyat paydo bo‘lishi va darajasiga ko‘ra quyidagi shakllarga ega:

Yuksak madaniyat, xalq madaniyati, ommaviy madaniyat va boshqalar. Bulardan tashqari, badiiy madaniyat va jismoniy madaniyat kabi kompleks ko‘rinishlar ham bor. [2; 8-9]

**Madaniyat** – ramzlar, ishonch - e‘tiqodlar, qadriyatlar, mezonlar, artefaktlar yig‘indisidir. Madaniyatda mazkur jamiyat, millat, guruhlarining xarakterli xususiyatlari ham o‘z ifodasini topadi. Jamiyat, millat, guruhlar aynan o‘z madaniyati bilan farqlanadi. Xalq madaniyati – uning hayot tarzi, kiyimlari, yashash maskani, oshxonasi, xalq og‘zaki ijodi, diniy tasavvurlari, ishonch - e‘tiqodlari va boshqalardir.

Madaniyatga ijtimoiy-maishiy asbob-uskunalar, jamiyatda qabul qilingan xushmyomalalik imo-ishoralari va salomlashuv, yurish tarzi, myomala etiketi, gigiena odatlari va hokazolar ham kiradi. Aksariyat madaniy tushunchalar va qarashlar avloddan - avlodga o‘tib boraveradi. [3; 15] Bundan ko‘rinadiki madaniyat keng qamrovli tushuncha hisoblanib, uning tarkibiy qismlari bir necha unsurlarni tashkil etadi. U rivojlanishi natijasida avloddan-avlodga o‘tib boradi yoki transformatsiyaga uchrab o‘zgacha ko‘rinish hosil qiladi, ammo mazmunni yo‘qotmagan xolda saqlanib qolaveradi.

Buyuk Sharq mutafakkir Forobiy «Arou ahli madinatu-l-fuzalo» (“Fozillar shahri aholisining qarashlari”) asarining 13-bobida madaniyatning kelib chiqishini insonlarning tabiatidagi xislatlar, xususiyatlar bilan jamiyatga qanday ta‘sir ko‘rsatishi masalasi bilan, ya‘ni insonlarning biologik va ijtimoiy mohiyati bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqadi. [4; 129]

Fikrimizcha madaniyatning ko‘rinishlari tarixiy davrlarga qarab o‘zgarib turadi. Davrlarning almashinishi bilan madaniyatda ham sifat o‘zgarishlari yuz beradi. Ma‘lum bir tarixiy davrda yashagan kishilarning dunyo to‘g‘risidagi tasavvurlari, bilimi, ma‘naviy qadriyatlari to‘g‘risida atroflicha ma‘lumotga egamiz.

Endi madaniyat tugshunchasining tarixiga nazar tashalajak, qadimgi Rimda «madaniyat» tushunchasi «hayotni ma‘naviy jihatdan yanada yaxshilash va takomillashtirishga qaratilgan g‘amxo‘rlik» degan ma‘noda ishlatilgan edi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, mashhur Rim faylasufi, sitseron ham «ruhiy madaniyat» terminini ishlatgan. Yevropa xalqlarida esa XVIII asrning oxirlarigacha «madaniyat» termini aqliy, axloqiy tushunchalar bilan bir qatorda ishlatilgan. Ko‘rinib turibdiki, «madaniyat» tushunchasi turli tushunchalarni ifodalashiga qaramay, qadimdan hozirgi kungacha o‘z mohiyatini o‘zgartirmagan. [5; 230]

Madaniyat tushunchasig tahlilini yakunlab urbanistik madaniyat tushunchasi mazmunmga to‘xtalib o‘tamiz. Urbanistik madaniyat manbalarda shahar madaniyati ham deb ataladi.

**Shahar madaniyati** – yirik va qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanmaydigan sanoat va ma‘muriy markazdir. Hamma shahar aholisi uchun yagona madaniyat mavjud emas. Chunki shaharlar faqat geografik va geopolitik (Yevropa va Yaponiyaga yaqinligi) aholi miqdori, shahar kengligi bilangina emas, balki ishlab chiqarish sohasiga ko‘ra ham farq qiladi: to‘qimachilik sanoati, konchilik sanoati markazlashgan shaharlar, shaxtyorlar shahri, avtomobil ishlab chiqarishga ixtisoslashgan shaharlar, ilm–fan markazlari bo‘lgan shaharlar, kurort shaharlar, harbiy shaharchalar borki, bularning har birida o‘ziga xos madaniyat mavjud. [2; 9]

Rossiyaning pedegogik lug‘utida urbanistik madaniyatga quyidagicha ta‘rif berilgan. Urbanistik madaniyat - metropoliya sharoitida shakllanayotgan va rivojlanayotgan madaniy qadriyatlar tizimi. Shaharda barcha madaniy shakllar ya‘ni, ibodatxonalar, teatrlar, muzeylar, kutubxonalar, maktablar mavjud. Bu yerda ma‘lumot, faoliyat, insoniy muloqot, hayotni tartibga soluvchi o‘zlarining “aylanish markazlari” yaratilgan. Unda har bir kishi ma‘lumoti, kasbi, shaxsiy madaniyat darajasi, tarixiy o‘tmishiga qarab o‘z nasibasini topadi. Har bir shaharning o‘ziga xos “yuzi”, o‘ziga xos axloqiy o‘lchovlari, o‘ziga xos ma‘naviyati, o‘z mentaliteti bor. Bularning barchasi uning madaniyati bilan belgilanadi, u tomonidan shakllanadi. Shahar madaniyati

qishloqdan, xalq madaniyatidan olingan narsaning kamolot choʻqqisidir. U iqtidorli kishilarning nomlari bilan chuqur ifodalangan. Shahar madaniyati shakllanishining oʻziga xos xususiyati uning boshqa madaniyatlar, fan, texnika bilan oʻzaro aloqasi boʻlib, fantaziya maydonini kengaytiradi.

Urbanistik madaniyat yirik maʼmuriy-sanoat markazlari, qishloq xoʻjaligiga oid boʻlmagan aholi punktlari madaniyati deb ham ataladi. Shuningdek, “urbanistik madaniyat” atamasi shahar madaniyatiga nisbatan qoʻllaniladi va baʼzan sinonimlar bilan almashtiriladi. Shahar madaniyati yoki sanoat madaniyati.

Shahar madaniyati - qishloq madaniyatidan oʻziga xos xususiyatlari hududning yuqori qurilish zichligi, u yoki bu maqsaddagi katta miqdordagi transport yoʻnalishlari mavjudligi, ijtimoiy-madaniy obʼektlar koʻchalar, bogʻlar, maydonlarning farqli ekanligi, muhandislik tizimlari, temir yoʻl uzellari, transport uzilishlari, telekommunikatsiya va suv taʼminoti tarmoqlarining yaxshi rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

Shaharning madaniyat maydoni keng koʻlamli dam olish, koʻngilochar va kundalik hayotni taʼminlaydi, chunki shaharda, qoida tariqasida, teatrlar, muzeylar, sanʼat galereyalari, kutubxonalar, restoranlar, shuningdek, uy xoʻjaliklari, kimyoviy tozalash va boshqalar mavjudligi bilan xususiyatlanadi.

Bundan tashqari, shaharda bir-birini tanimaydigan juda koʻp odamlar yashaydi, shuning uchun ijtimoiy munosabatlarning anonimligi ehtimoli yuqori. Boshqacha qilib aytadigan boʻlsak, shahar aholisi, bir tomondan, oʻzini ancha erkin his qilishi mumkin, ikkinchi tomondan, oʻz qiziqishlariga qarab oʻz muloqot doirasini mustaqil ravishda tanlashi mumkin.

Insoniyat XXI asrga katta hayotiy tajriba, bir olam bilim va yuksak darajada rivojlangan fan va texnika bilan kirib keldi. Dunyo halqlari madaniy jihatdan oʻzaro yaqinlashdilar. Madaniyatning turli sohalarida misli koʻrilmagan yutuqlar qoʻlga kiritildi. Ammo shu bilan birga, bugungi dunyo umumjahon miqyosidagi global muammolarga, lokal, yaʼni mintaqaviy yoki sohaviy mojarolarga, bir soʻz bilan aytganda, murakkab ziddiyatlarga ham duch kelmoqda.[2; 3] Shu bilan birga jaxonda va mamlakatimizda rivojlanish jarayoni davom etmoqda. Shaharlar taraqqiyotga erishmoqda. Bu esa oʻz navbatida yuqorida taʼkidlanganidek bir qator muammolarning kelib chiqishiga sabab boʻlmoqda. Dunyo olimlari va qator fan sohaları vakillarining fikriga koʻra urbanistik madaniyatni shakllanishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratish yuzaga kelgan hamda paydo boʻlishi mumkin boʻlgan muammolarning bartaraf etish, shuningdek oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu tufayli Vatanimizning kelajagi boʻlgan yosh avlodning maʼnaviy olamini boy, har sohada barkamol qilib tarbiyalash uchun butun insoniyat necha ming yillar davomida yaratgan moddiy va maʼnaviy madaniyat xazinalaridan bahramand etish, ularda barcha xalqlarga hurmat, milliy iftixor, vatanparvarlik, insonparvarlik tuygʻularini uygʻotish va shakllantirish muhim maqsadlardan sanaladi.

Urbanistik madaniyat, uning paydo boʻlishi, ilmiy myomalaga kiritilishi, shakllanishi va rivojlanishiga hizmat qiladigan omillar hamda mamlakatimizdagi urbanizatsion jarayonlar rivojida tutadigan oʻrni toʻgʻrisida fikr yuritamiz. Tadqiqotda urbanistik madaniyatning tarkibiy qismlari va zamonaviy xususiyatlari haqida fikr yuritamiz. Urbanistik madaniyatga taʼrif berish va u xususida fikr yuritishga oʻtishdan avval madaniyat tushunchasi haqida mulohazalarimizni bayon etsak. Zero bugun madaniyatshunoslik va oʻrganadigan madaniyat tushunchasini xalqimizga, yoshlarimizga toʻgʻri tushuntirish, u orqali milliy iftixor va gʻurur tuygʻularini singdirishimiz hamda yot gʻoyalar taʼsiridan asrab qolishga erishishimiz mumkin.

Oʻrganilgan materiallardan koʻrinadiki, urbanistik madaniyat shaharlar taraqqiyotida asosiy omil hisoblanadi. U shahar aholisining maʼnaviy kamolini taʼminlab, ijtimoiy munosabatlar, sanoat va maʼmuriy infratuzilma bilan bogʻliq jarayonlarni tartibga soladi. Shahar madaniyati qishloq va xalq madaniyatidan farqlanib, yuqori qurilish zichligi, keng transport yoʻnalishlari, ijtimoiy va madaniy obʼektlar bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, urbanistik muhitda aholi anonimlik va mustaqil muloqot imkoniyatlariga ega boʻladi. Urbanistik madaniyat shaharlarning maʼnaviy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini taʼminlab, avloddan avlodga qadriyatlar va bilimlarni yetkazadi. Ushbu jarayonlar shaharlar hayotida innovatsion, ijtimoiy va ekologik yechimlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, urbanistik madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi davlat

siyosati, bilim tizimi va ommaviy axborot vositalari bilan uzviy bogʻliq. Xulosa qilib aytganda, urbanizatsiya va urbanistik madaniyat rivojlanishi davlat va jamiyat oʻrtasida samarali aloqani taʼminlaydi, ijtimoiy ziddiyatlarni kamaytiradi va shahar aholisining madaniy va maʼnaviy kamolini mustahkamlaydi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон Стратегияси. -Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021,- 457 Б.
2. Абдурахмонов М., Рахмонов Н. Маданиятшунослик бакалавриат учун дарслик. Тошкент. – 2008. Б. 8-9.
3. Кравченко А.И. Культурология. – Учебник. “Проспект”, М.:2005, стр.15.
4. Фаробий, Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри – Тошкент, Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти. 1993, Б.129.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, М. 1981 . 1-том, Энциклопедик луғат, Т. 1990 йил, 1-том, фалсафа, комусий луғат, Т. 2004. Б.230.

#### REZUME:

Maqolada XXI asrda urbanizatsiya jarayonlari va urbanistik madaniyatning aholi turmushiga taʼsiri tahlil qilingan. Urbanistik madaniyat shaharlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga xizmat qiladi, avloddan avlodga qadriyatlar va bilimlarni yetkazadi.

**Kalit soʻzlar:** Urbanizatsiya, urbanistik madaniyat, shahar madaniyati, madaniyat, infratuzilma, ijtimoiy munosabat, avlod, bilim, davlat siyosati, ommaviy axborot, texnologiya, maʼnaviyat.

#### РЕЗЮМЕ:

В статье проанализировано влияние процессов урбанизации и урбанистической культуры на жизнь населения в XXI веке. Урбанистическая культура способствует экономическому, социальному и культурному развитию городов, передаче ценностей и знаний из поколения в поколение.

**Ключевые слова:** урбанизация, урбанистическая культура, городская культура, культура, инфраструктура, социальные отношения, поколение, знания, государственная политика, средства массовой информации, технологии, духовность.

#### RESUME:

This article analyzes the impact of urbanization processes and urban culture on the lives of people in the 21st century. Urban culture contributes to the economic, social, and cultural development of cities and ensures the transmission of values and knowledge from generation to generation.

**Keywords:** urbanization, urban culture, city culture, culture, infrastructure, social relations, generation, knowledge, state policy, mass media, technology, spirituality.